

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

*Maktabgacha ta'lism fakulteti Maktabgacha ta'lism psixologiyasi
va pedagogikasi kafedrasи v.b.dotsenti*

Choriyevadurdona76@gmail.com

Abdirasulova Gulhayo Hamza qizi,

Shavkatova Shahnoza Shomurod qizi,

*"Maktabgacha ta'lism psixologiyasi va pedagogikasi"
yo'nalishining 4 kurs talabalari*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv faoliyati jarayonida maktabgacha yoshdag'i bolalarining kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala munosabatlari, tarbiyachining maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining uslublari, bolaning o'qishga qiziqishlarini rivojlantirib borish chora-tadbirlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha yosh, bilim, bilishga qiziqish, o'yin faoliyati, tafakkur, samarali o'qish.

Annotation. This article covers the interaction of preschoolers with adults and peers during educational activities, methods of influence and the teacher's attitude towards preschoolers, measures to develop the child's interest in learning.

Keywords. Preschool age, knowledge, interest in learning, play activities, thinking, effective reading.

Аннотация. В данной статье освещены взаимодействие дошкольников со взрослыми и сверстниками в ходе учебной деятельности, методы воздействия и отношения педагога к дошкольникам, меры по развитию интереса ребенка к учебе.

Ключевые слова. Дошкольный возраст, знания, интерес к учебе, игровая деятельность, мышление, эффективное чтение.

O'quv faoliyatida o'z-o'zini nazorat etish bu yoshdag'i maktabgacha yoshdag'i bolalarda o'quv harakatlarini mustaqil rejallashtirish va ularni bajarishning shakllanishida juda muhim. Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarda o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan ta'linda bu yoshdag'i bolalar umumiy o'rta ta'lism dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Bu yoshdag'i bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab o'quv materialini

o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari aqliy taraqqiyot va o'quvchanlikning birmuncha orqada qolishidir. N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra, inson yoshi ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, o'quvchanlik esa birmuncha pasayadi. Guruhda maktabgacha yoshdagi bolalarning o'qishga qiziqishi, albatta, o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi maktabgacha yoshdagi bolalariga nisbatan yuqoridir. Tarbiyachining muomala va munosabat uslubi maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining mashg`ulot jarayonida har bir maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'sir ko'rsatishi uchun qulay imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-onा" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi, chunki tarbiyachi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabgacha ta`lim tashkilotiga kelgan bola o'zini to'liq anglashi va o'z xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin.

Faqat tarbiyachigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi mumkin. O'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun tarbiyachi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat guruhdagi, balki umuman,tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar ularning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

Tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud:

1. Avtoritar uslub. Bu uslub qattiqqo'llik bo'lib, bunda tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo'l bo'layotganini yoki maktabgacha yoshdagi bolalariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z xatti-harakatlarni mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi. Bunday tarbiyachi o'z maktabgacha yoshdagi bolalardan mashg`ulot davomida jum o'tirishni, savollarga doimo qo'l ko'tarib, tarbiyachining ruxsati bilan javob berishni, tarbiyachining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishni talab etadi. Bu uslubga kiruvchi pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari asosida emas, balki o'quv rejasi asosida mashg`ulot o'tadilar. Mashg`ulot davomida bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda, asosan, tarbiyachining fikri singdiriladi, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muomala munosabatda ham ularing individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv tizimining qo`zg'aluvchanlik darajasi

e'tiborga olinmaydi. Shu bilan birga, tarbiyachini guruhdan, bolalardan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik guruhda intizomli maktabgacha yoshdagi bolalarda yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini yuzaga keltiradi. Bu uslub guruhda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berishi mumkin, ammo bu o'zlashtirish, asosan, xotira evaziga bo`lib, mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarning rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'ladi, doimiy xavotirlik va o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

2. Imperativ uslub. Bu uslubdagi tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalari tarbiyachi guruhda bo`limgan vaqlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo`limganligi uchun intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslubda tarbiyachining mustahkam irodasini ko'rish mumkin, lekin bu irodada maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan muhabbat hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda "meni yaxshi ko'radi" degan fikr emas, balki qo'rquv hissi mayjuddir.

3. Demokratik uslub. Bu uslub tarbiyachi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Mashg`ulotdagi intizom majburiy emas, balki muvaffaqiyatga erishish garovi sifatida bolalarga ijobiy emotsiya, o'ziga ishonch, o'z muvaffaqiyati va yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Bu uslub bolalarni birlashtiradi, shu bilan birga, o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi tarbiyachining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

4. Liberal uslub - kasbiy layoqati yo'q boigan tarbiyachilarga xos bo'lgan uslub. Bu uslubga kiruvchi tarbiyachi mashg`ulot jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Natijada har bir bola mashg`ulotda o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi.

Bola o'z majburiyatlarni yaxshi his qilmaydi. Muomala-munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, uni bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida qo'llab bo'lmaydi.

Shunday qilib, guruh maktabgacha yoshdagi bolalari bilan muomala-munosabatdagi avtoritar va imperativ uslublar, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub tarbiyachidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda, bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa maktabgacha yoshdagi bolalarni emotsiyonal zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. Tarbiyachining munosabat uslubi maktabgacha yoshdagi bolalarning faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi maktabgacha yoshdagi bolalar faollining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo`lib, bular jismoniy, psixik va ijtimoiy faollilikdir. Jismoniy faollik - sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishdagi tabiiy ehtiyoji. Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo`ladilar. Bu

jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga harakat qilayotgani bilan ham bog`liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi bir-biriga o'zaro bog'liq, chunki psixik sog`lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan qiziqmaydi. Psixik faollik - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagи predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishi. Psixik faollik deganda, bolaning o'zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Maktabgacha ta`lim tashkilotiga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularda, avvalo, o'quv dargohining bir qancha qoidalariga bo'y sunish qiyin kechadi. Guruhdagi bolalar uchun eng qiyin qoida bu mashg`ulot vaqtida jim o'tirishdir. Tarbiyachilar bolalarning doimo jim o'tirishlarini talab qilishadi, lekin kam harakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg`ulot jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. Ijtimoiy faollik - atrofdagilar bilan tez muomalaga kirishib keta olish, ko'pchilikka aralasha bilish, ulfatijonlik, dilkashlik, odamlar bilan ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa munosabatlarga kirishish. Ushbu faollikda maktabgacha yoshdagi bolalar o'z burchini anglash bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiga xos eng yaxshi sifatlar asosida, zero to'la ma'nodagi jamoatchi bo'lib, tengdoshlariga hayotda ijtimoiy faol holatning amaliy namunasini ko'rsata oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta`lim tashkiloti qoidalariga bo'y sunishga o'rgatish quyidagicha amalga oshiriladi: guruhdagi maktabgacha yoshdagi bolalarining muhim xususiyatlaridan biri ularda tarbiyachiga nisbatan ishonch hissidir.

Shuning uchun tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda keng. Bola tarbiyachini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi.

Tarbiyachining obro'si oldida bola uchun ota-onasi, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar tarbiyachining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Demak, maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati tarbiyachi shaxsi va uning bolalar bilan qiladigan ijobiy muomala-munosabat uslubiga bog'liq. Maktabgacha guruh o'quvchilari shaxsining shakllanishi o'quv faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini nvojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham bolalar shaxsiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo`lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati maktabgacha yosh bolalari uchun o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek tengdoshlari orasida o'z o'rniiga ega bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar

doimiy ravishda o'zлari erishgan muvaffaqiyatni boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Maktabgacha ta'lif davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsiyal zo'riqishni beradi.

Demak, bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga keltirish va mustahkamlash davri, deb hisoblash mumkin. Bu davrlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Boshlangich guruh bolalarida mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergen taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatini shakllantirish, asosan, kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq ko'ngilli bo'lsa, unda asta-sekinlik bilan bo'ysinuvchanlik, tobeklik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq mustaqillikka undashni ertaroq boshlash, bolada ba'zi salbiy xislatlarining shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki bola hayotiy tajribalarni, asosan, kimlargini taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhim. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, bola biron-bir mas'ul vazifani mustaqil bajarsin va bu ishni bajarish jarayonida o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri, deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Maktabgacha ta'lif yoshdag'i bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi jadal rivojlanib, mustahkamlana boradi.

ADABIYOTLAR

1. Allan Jon. Bola qalbining manzarasi. - Sankt-Peterburg: Dialog - Lotas, 1997 yil.
2. Bojovich L.I., Bolalik davridagi shahsiyat va uning shakllanishi: Psixologik o'r ganish. - M., 1986 yil.
3. Butner Kripian. ,Agressiv bolalar bilan hayot. - M.: Pedagogika, 1991 yil.
4. Zaharov A.I., Bolalardagi nevroz va ularni davolash. - L., 1977 yil.
5. Maksimov V.A., Pedagogicheskaya diagnostika M.; Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lif - tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2013
6. Chorieva, D. (2020). IMPROVING STUDENTS'READINESS FOR PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
7. Chorieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF

RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).

8. Чориева, Д. А., & Камалова, Г. А. (2021). РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 161-166).
9. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
10. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
11. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
12. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
13. Chorieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.
14. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.
15. Гайназарова, Г. А. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГ-ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ОШИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 3).